

IJTIMOIIY SIYOSAT YANGI O'ZBEKISTONDA SAMARADOR
DAVLAT BOSHQARUVINING MEXANIZMI SIFATIDA

Umatov Azamatdin Kurbanievich

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va uning mazmuni, Ijtimoiy siyosatning maqsadi va mexanizmlari, xalqimiz ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarni qollab-quvvatlash, himoyalash va mehnat qobiliyatini qayta tiklash uchun sharoitlar yaratish masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy siyosat, Yangi O'zbekiston, mexanizm, siyosat, xalq, muammo, globallashuv, kelajak.*

Abstract: *The article will talk about the issues of Social Policy and its content, the purpose and mechanisms of social policy, the satisfaction of the social needs and interests of our people, the support, protection of certain citizens and social groups and the creation of conditions for the restoration of working capacity.*

Keywords: *Social Policy, New Uzbekistan, mechanism, politics, people, problem, globalization, future*

So'nggi besh yil davomida yurtimizda keng ko'lamda tarixiy demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha kundalik hayotimizdan tortib real voqelikka aylanmoqda. Mamlakatimiz bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Ijtimoiy siyosat Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvining mexanizmlarining biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Cho'nki davlatimiz har bir fuqaro haqida qayg'urmoqda va bu eng oliy yuridik qonunlarimizda, jumladan Konstitutsiyamizda ham belgilab quyilgan. Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvida Ijtimoiy siyosatning ahamiyati juda katta. Sababi ijtimoiy siyosat aholining turmush darajasini yaxshilash, jamiyatdagi muammolarni hal qilish, aholining hayotini yaxshilash va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Uzoq muddatli ijtimoiy siyosat samarali rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash yo'li bilan fuqarolar tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishni kiritish mumkin.[1]

Ijtimoiy siyosat - bu jamiyatdagi muammolarni hal qilish va aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatidir. Bu siyosat turli sohalarni qamrab oladi. Jumladan - Ijtimoiy ta'minot ijtimoiy siyosatning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib pensiyalar, bolalar nafaqalari, ishsizlik nafaqalari, tibbiy yordam va boshqalar kiradi. Bundan tashqari ta'lim

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

tizimlari - maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi va boshqalar kiradi. Sog'liqni saqlash tizimi - tibbiy xizmatlar, dori-darmonlar, kasalliklar profilaktikasi va boshqalar. Mehnat bilan ta'minlash ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat huquqlarini himoya qilish va boshqalar kiradi. Bundan tashqari aholini uy-joy bilan ta'minlash, madaniyat va sport, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy siyosatning maqsadi aholining turmush darajasini yaxshilash, jamiyatdagi muammolarni hal qilish, aholining hayotini yaxshilash va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi.

Iste'mol mollarining ko'pini o'zimizda etishtirishni ta'minlash uchun mahalliy ishbiarmonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq joylarda savdo shahobchalari va maishiy xizmat muassalarini ko'plab barpo etish ana shu maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. O'zbekistonda hususiyashtirish jarayonlarining borishi va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi, iste'mol mollarini ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlarlar ana shunday yo'nalishga ega. Iste'mol mollarining ko'pini o'zimizda etishtirishni ta'minlash uchun mahalliy ishbiarmonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq joylarda savdo shahobchalari va maishiy xizmat muassalarini ko'plab barpo etish ana shu maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. O'zbekistonda hususiyashtirish jarayonlarining borishi va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi, iste'mol mollarini ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlarlar ana shunday yo'nalishga ega.

Ijtimoiy siyosatning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati Aholini ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy siyosat muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda keskin ijtimoiy tabaqalanishni oldini olish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim hisoblanadi. Ijtimoiy tabaqalanishga ijtimoiy adolatsizlik va ommaviy nizolar manbai sifatida qaraladi. Shuning uchun ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash ijtimoiy siyosatning muhim qismi sanaladi.[2]

Ijtimoiy siyosat davlat tomonidan amalga oshiriladi va unda qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qo'llaniladi. Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvining mexanizmlari haqida gapirganda, bir nechta muhim jihatlar e'tibor qaratish kerak. Bular shaffoflik bo'lib ochiq ma'lumotlar: Hukumat faoliyati, qonunlar, davlat dasturlari, byudjet mablag'larining sarflanishi haqidagi ma'lumotlarni ochiq va hammaga tushunarli qilib taqdim etish. Jamoatchilik nazorati bu fuqarolarni davlat boshqaruvi jarayonlariga jalb qilish, ularning fikrlari va takliflarini hisobga olish, fuqarolarning davlat organlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatda davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatining natijalarini baholash, ularning hisobdorligini ta'minlash, xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmlarini joriy etish katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy siyosatda ijtimoiy adolat ta'minlanishi zarur. Jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish, aholining turli qatlamlari o'rtasidagi farqni kamaytirish ijtimoiy barqarorlikka olib keladi va aholining turmush sifatini yaxshilaydi.

Keyingi paytda “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko'rsatkichlar emas, balki yordam va ko'makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o'z joyida aniq o'rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal etilmoqda. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar o'z ijobiy natijasini bermoqda. Birgina “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 2021 yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. [3]

Ijtimoiy sohada islohotlar strategiyasini belgilovchi asosiy shartlar, bular, aholini daromadi va mulkka egaligi bo'yicha tabaqalanishi, ishsizlik, qishloqdagi ortiqcha bandlik, milliy valyutaning sotib olish qobiliyati, inflyasiya, sof daromad darajasi kiradi. Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish katta ahamiyatga ega. Bunda ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi zarur.

Xulosa qilib aytgan yuqoridagi mexanizmlarni samarali tatbiq etish orqali Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvi tizimini yaratish, xalqimiz va fuqarolarning hayotini tubdan yaxshilash, mamlakatimiz iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatda barqarorlikni ta'minlash mumkin.

REFERENCES:

1. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010 – B.94
2. Agzamova Nilyufar Shuxratovna, Muxamedjanova Lalixon Ashuralievna, Kado'rova Dilbar Salixovna. “Konspirologicheskie teorii proisxojdeniya pandemii COVID-19 Eticheskie problema” borbo” s pandemiei”. 2021G“2G“1 S. 6250–6261-6250–6261.
3. Ijtimoiy siyosat – O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi. <https://kun.uz/news/2021/12/14/ijtimoiy-siyosat-ozbekistonda-davlat-siyosatining-muhim-ustuvor-yonalishi>